

Temirov Ibrohimjon Qobiljonovich

Buxoro Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +998973716091

E-mail: ibrohim9107@gmail.com

UDK: 091.122

IMOM TERMIZIYNING “SUNAN” ASARIDA FIQHNI BAYON QILISH USLUBI

Annotatsiya. Abu Iso Termiziy hadisdagi imom sifatida ulamolarning soʻzlarini va fiqhiy mazhablarini oʻzlarining odatlariga muvofiq ishonchli sanad bilan naql qilgan. Ulamolarning soʻzlarini va mazhablarini sanadiga oʻzining “Ilal” kitobida xuddi manbalarni keltirib oʻtgandek ishora qilib oʻtgan. Bu sanadlar oʻsha mazhab sohibi tomonidan naql qilingan fikrni bilish uchun juda muhim sanaladi. Shuning uchun ushbu maqolada Imom Termiziyning “Sunan” kitobida fiqhiy masalalarning qanchalik yoritilganligi va aynan qaysi jihatlariga eʼtibor qaratganligi toʻgʻrisida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Imom Termiziy, sunan, fiqh, mazhab, sharh, tadqiqot, sahih, sanad.

МЕТОД ВЫРАЖЕНИЯ ФИКХА В «СУНАНЕ» ИМАМА ТЕРМИЗИ

Темиров Ибрагимджон Кабильонович

независимый исследователь Бухарского государственного университета

Тел: +998973716091

Э-почта: ibrohim9107@gmail.com

Аннотация. Абу Иса Тирмизи, как имам в хадисе, передавал слова ученых и юридических школ с достоверным санадом в соответствии с их обычаями. В своих книгах «Илал» он ссылался на санад слов и сект ученых, как бы ссылаясь на источники. Эти санады считаются очень важными для того, чтобы знать мнение, высказанное мазхабом их владельца. Именно поэтому в данной статье говорится о том, насколько вопросы фикха освещены в книгах Имама Тирмизи «Сунан» и каким аспектам в них уделяется внимание.

Ключевые слова: Имам Тирмизи, сунан, фикх, мазхаб, комментарий, исследование, сахих, санад.

THE METHOD OF EXPRESSING FIQH IN THE «SUNAN» OF IMAM TERMIZI

Temirov Ibrahimjon Kabiljonovich

Independent researcher at Bukhara State University

Phone: +998973716091

E-mail: ibrohim9107@gmail.com

Annotation. Abu Isa Tirmidhi as an imam in the hadith, transmitted the words of scholars and jurisprudence schools with reliable sanad according to their customs. In his «Ilal» books, he referred to the sanad of the words and sects of the scholars as if citing the sources. These sanads are considered very important to know the opinion conveyed by the madhhab of that owner. That's why this article talks about the extent to which fiqh issues are covered in Imam Tirmidhi's «Sunan» books and what aspects they pay attention to.

Key words: Imam Tirmidhi, sunan, fiqh, madhhab, commentary, research, sahih, sanad.

Kirish.

So'nggi yillarda yurtimizda barcha sohada yuksak islohotlar bo'lmoqda. Hammamizga ma'lumki, prezidentimizning tashabbuslari bilan Islom sivilizatsiya markazi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi, Surxondaryoda oliy va o'rta maxsus madrasalar ochildi. Yangi masjid-u madrasalar qurildi, qanchadan qancha masjidlar rekonstruksiya qilindi. Shunday ekan xalqimizning ham diniy salohiyati ancha ortib fiqh ilmida ancha chuqur va muzokarali masalalar yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham quyida Imom Termiziyning "Sunan" kitobida fiqhni bayon qilish uslubi borasida qisqacha bayon qilamiz. To'g'ri, biz Imom Termiziyning "Sunan" asarlarini faqat hadis kitobi deb bilamiz. Lekin ushbu asar faqatgina hadisni emas, balki fiqh ilmini ham bayon qilgan asarlardan hisoblanadi. Hatto bu asar hozirgi kunga qadar mazhabi yetib kelmagan mujtahid ulamolar Sufyoni Savriy, Abdulloh ibn Muborak, Ishoq ibn Rohavayh va shu kabilarning so'zlarini

ham oʻzida jamlagan noyob asar sanaladi. Baʼzi ulamolarning taʼrifi boʻyicha Imom Termiziy “fiqhul muqorin” yaʼni qiyosiy fiqhshunoslikka asos solgan shaxs deyiladi [3; 84.].

Adabiyotlar tahlili.

Muhaddis ulamolar hadisni rivoyat qilishda qanday ishonchli roviylar orqali rivoyat qilingani, uni oʻzaro bogʻliqligiga ahamiyat berilgani kabi fiqhni bayon qilishda ham kimlar orqali rivoyat qilinayotganiga, uning ishonchli yoki ishonchli emasligiga ham ahamiyat qaratganlar. Shuningdek hadisda boʻlgani kabi fiqhda ham oʻzlarining sanadlari boʻlgan. Xususan Imom Termiziy “Ilal” kitobida oʻzining fiqhiy sanadini bayon qilib ketgan.

1. Imom Termiziy aytadi: “Bu kitobda keltirib oʻtgan faqihlarimizdan Sufyon Savriy (97/719-161/778) soʻzlarining aksarini bizga Muhammad ibn Usmon Koʻfiydan, u esa Ubaydulloh ibn Musodan, u esa Sufyoni Savriydan naql qilgan.

Bizga Abul Fazl Maktum ibn Abbos Termiziydan, u esa Muhammad ibn Yusuf Firyobiydan, Firyobiy esa Sufyoni Savriydan naql qilgan” [4;162.].

Koʻrib turibmizki, Sufyon Savriyning fiqhlarini Imom Termiziy ikkita sanad bilan rivoyat qilgan. Har ikki sanadda ham Imom Termiziy bilan Sufyon Savriy oʻrtasida ikkita vosita boʻlyapti.

2. Imom Termiziy Imom Molikning sanadlari borasida:

a) “Imom Molik ibn Anas (93/711-179/795)ning fiqhi haqida aytadigan boʻlsak, aksarini bizga Isʼhoq ibn Muso Ansoriy, u kishi Maʼn ibn Iso Qozzazdan, u esa imom Molikdan rivoyat qildi.”

b) “Roʻza borasida bizga Abu Musʼab Madaniy, u kishi Molik ibn Anasdan xabar berdi” [5;109.].

c) “Bizga Muso ibn Hizom, u kishi Abdulloh ibn Maslama Qaʼnabiydan, u esa Imom Molik ibn Anasdan rivoyat qildi” – deb aytadi [2;1.].

Shu uch sanadning barchasini Imom Molikdan taʼlim olgan shogirdlaridan rivoyat qiladi. Ikkitasida ikkita vosita bilan, bittasida bitta vosita bilan rivoyat qilinadi.

3. Imom Termiziy Abdulloh ibn Muborakning sanadi haqida: “Abdulloh ibn Muborakning fiqhini bizga Ahmad ibn Abda Omiliy aytib berdi. U kishi Ibn Muborakning as’hoqlaridan, ular esa Abdulloh ibn Muborakdan naql qildilar.

Abdulloh ibn Muborak (118/736-181/797) ning as’hoqlari quyidagilar:

Ahmad ibn Abda Omiliy, u kishi Abu Vahb Muhammad ibn Muzahimdan, u esa Ibn Muborakdan.

Ahmad ibn Abda Omiliy, u kishi Ali ibn Hasandan, u esa Ibn Muborakdan.

Ahmad ibn Abda Omiliy, u kishi Abdandan, u esa Sufyon Ibn Abdulmalikdan, u esa Ibn Muborakdan.

Ahmad ibn Abda Omiliy, u kishi Vahb ibn Zam’a, u esa Fuzola Nasaviydan, u esa Ibn Muborakdan.

Ahmad ibn Abda al-Omiliy, u kishi Hibban ibn Musodan, u esa Ibn Muborakdan rivoyat qiladi [2; 2.].

4. Imom Termiziy Muhammad Ibn Idris Shofeiyy (150/767-204/820) sanadlari haqida aytadi:

a) Shofeiyy fatvolarining aksarini bizga Hasan ibn Muhammad Za’faroniy, u kishi Shofeiyydan rivoyat qilgan.

b) Tahorat va namoz borasida bizga Abul Valid Makkiy, u kishi Shofeiyydan xabar bergan.

c) Abu Ismoil Termiziy, u kishi Yusuf ibn Yahyo Qurashiy Buvaytiydan, u esa Shofeiyydan xabar bergan.

d) Rubay’dan, u kishi Shofeiyydan ham ba’zi fatvolarni zikr qilgan [2; 3.].

Tadqiqot metodologiyasi.

Imom Termiziyning “Sunan” asarida fiqhni bayon qilish uslubiga bag’ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning germeneytik tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi metodlaridan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar.

Imom Za’faroniy Iroqda Imom Shofeiyydan eshitgan, kitoblarini o’ziga o’qib bergan. U Shofeiyy mazhabining qadim g’oyalarining roviylaridan hisoblanadi, hatto bu rivoyat “Zafaroniy fiqhi” deb ham tanilgan.

Ikkinchi sanadda ham bitta vosita bor. Imom Termiziy aytganidek, tahorat va namoz borasidagi Imom Shofeiyning fikrlarini Abul Valid Makkiy orqali olgan. Fiqhni naql qilishda esa u kishi Imom Shofeiyning as'hoblarining eng "siqa", ya'ni "ishonchli"laridan hisoblanadi. Ibn Subkiy u kishi haqida: "U yetuk faqih, Makkada insonlarga Shofeiymazhabida fatvo berib yashagan olim", – degan.

Abul Valid Makkiyning Imom Shofeiydand qilgan rivoyatlari orasida imomning quyidagi so'zlarini ham rivoyat qilgan: "Agar men bir so'z aytgan bo'lsam-u, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan uni xilofiga sahih rivoyat kelgan bo'lsa, mening so'zim Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytgan so'zdir", – degan [6; 72.].

Imom Termiziy bu olimdan Shofeiymazhabidagi ishonchli so'zlarni rivoyat qilganini bildik. Shunday ekan, "Za'faroniy fiqhi"ni naql qilinganlarning ichida Imom Termiziy eng kuchlisi hisoblanadi. Bu sanadlarni o'rganish orqali bizga ma'lum bo'ladigan narsa shuki, Imom Termiziy Muhammad ibn Idrisning sahih, kuchli so'zlari bilan kelgan sanadlaridan fiqhini naql qilgan. Lekin, Imom Shofeiyning oxirgi so'zi, to'xtamga kelgan "qovli jadid", "fiqhi jadid"ni naql qilmagan. Faqat, ba'zi o'rinlarida masalan, tahorat, namozga o'xshash o'rinlardagina rivoyat qilgan [7; 397.].

5. Imom Termiziy Ahmad ibn Hanbal (164/780-241/855) va Is'hoq ibn Rohavayh (161/778—238/853) haqida aytadi:

"Ahmad Ibn Hanbal va Is'hoq ibn Ibrohimlarning so'zlarini naql qilishda bizga Is'hoq ibn Mansur xabar berdi. Lekin, haj, diya va hadlar bobida Is'hoq va Ahmad so'zlarini Is'hoq ibn Mansurdan eshitmadim, balki, menga Muhammad ibn Muso Asom xabar berdi. U kishiga Is'hoq ibn Mansur xabar berdi. Ba'zi Is'hoq ibn Rohavayh so'zlarini bizga Muhammad ibn Aflah, u kishi Is'hoqdan rivoyat qildi" [2; 3.].

Umumiy aytganda, Imom Termiziy Ahmad Ibn Hanbal va Is'hoq ibn Rohavayhdan 3 ta sanad bilan rivoyat qilgan.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, Imom Termiziy 3956 ta hadisni keltirishdan maqsad "Ilal" Kitobida aytganidek, faqih ulamolar amal qilgan hadislarni keltirish bo'lgan. Shu sababli ham hadislar ortidan qaysi muftahid bu hadisni olganini bayon qilgan.

Ushbu alloma tomonidan barcha mo'tabar muftahidlarning fihi bayon qilingani uchun barcha mazhablarda va butun dunyoda sharhlar yozilganini ko'rishimiz mumkin. Hatto hozirga qadar Imom Termiziyning "Sunan" asaribir qator dunyoning nufuzli Islom bilim dargohlarida darslik sifatida o'qib kelinmoqda.

Adabiyotlar

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019.– 624 b.
2. Abu Iso Termiziy. Ilal at-Termiziy al-kabir. – Bayrut: Dar an-nahzatil Arabiya, 1989. – 214 b.
3. Aminov H., Ismoilov M., Abiyev H., Abdullayev B. Sunan at-Termiziy sharhi. – Toshkent: Irfon nashr, 2021. – 456 b.
4. Cho'tmatov J. Imom Abu Iso Termiziy hayoti va ijodi sahifalari. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019. – 316 b.
5. Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – Toshkent: Movarounnahr nashryoti, 2017. – 156 b.
6. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 516 b.
7. Nuriddin Itr. Al-Imam Termiziy val muvozanatu bayna Jameihi va baynas sahihayn. – Qohira: Lajnat at-ta'lif vat tarjima van nashr, 1970. – 412 b.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 28- juz. – Toshkent: "Hilol-Nashr" nashriyoti, 2016. – 312 b.
9. Siddiqov S., shodiyev J., Mirsodiqov U. Imom Termiziyning "al-Jome' as-sahih" asariga kirish. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 215 b.

10. Choʻmatov J. Kitab al-Ilal (Hadis illatlari haqida risola). – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 186 b.